RASTA — foydalanuvchi qo'llanmasi

Versiya: 2026-10-27 (RASTA 65ce3fb). Videolar: softdoc.uz/qollanmalar. Barcha ism, tovar va summalar — demo uchun uydirma ma'lumot.

Mundarija

- Birinchi kun: tekshiruv ro'yxati
- Birinchi kun: Tovar guruhlari va tovar kartochkasi; Tovarlarni Excel'dan import qilish; Boshlang'ich qoldiq kiritish
- Kassa: Kassada sotish; Kassa: ochiq cheklar, vaznli tovar, chegirma va tugmalar; Smena ochish, yopish va Z-hisobot; Z-hisobotni chop etish va Z-hisobotlar tarixi; Chek, chop etish va elektron chek (QR); Cheklar tarixi, qaytarish va storno
- Tovar va ombor: Tovar qo'shish va kirim; Kirimni fayldan yuklash, yuk xati va etiketka; 1C bilan almashinuv; Yetkazuvchilar va buyurtma; Ombor qoldig'i, partiyalar va qo'shimcha ombor; Ombordan savdo zaliga: javonga chiqarish; Omborlar va filiallar orasida o'tkazma; Inventarizatsiya (TSD va telefon); Yetkazuvchiga qaytarish va hisobdan chiqarish; Tarozi va vaznli tovar
- Narx, aksiya, mijoz: Narx o'zgartirish va aksiyalar; Sodiqlik kartasi va bonus; Sodiqlik kartasi dizayni va chop etish; Yetkazish buyurtmalari: chek, to'lov va holatlar
- Hisobotlar: Hisobotlar va dashboard (umumiy ko'rinish); Savdo hisobotlari; Foyda, ombor qiymati, ABC/XYZ va aksiya hisobotlari; Hisobotlar: Excel va mijoz qaytarishlari; Moliya: yetkazuvchi qarzi, to'lov va akt-sverka
- Sozlamalar va xodimlar: Kirish, rollar va ruxsatlar; Yangi foydalanuvchi va parol; Ish haqi: tabel, oylik varaq va to'lov; Xodim qarzlari va kassir reytingi; Sozlamalar, Telegram va bot orqali buyurtmalar; Qo'shimcha ombor, zaxira nusxa va litsenziya
- RASTA Mobile (telefon do'konlari): RASTA Mobile: IMEI va nasiya
- Ko'p so'raladigan savollar

Birinchi kun: do'konni ishga tushirish

Yangi do'kon (masalan: 1 ta do'kon, 1 ta kassa, orqa ombor va savdo zali) birinchi oyida quyidagi tartibda ishga tushadi: avval tovar ro'yxati, keyin qoldiq, keyin savdo. Har qadam yonida — batafsil video. Tartibni buzmang: qoldiq tovar kartochkalarisiz, savdo qoldiqsiz bo'lmaydi.


1. ☐ **SoftDoc'dan olinadiganlar.** Dastur manzili va admin login-paroli. Do'kon STIRi va litsenziya (filial, kassa va ombor soni) SoftDoc tomonidan kiritiladi. Menejer va kassirlarga loginni admin dasturning o'zida ochadi, xodim o'z parolini o'zi almashtiradi. Yetkazuvchilar ro'yxatini (nomi, telefoni) SoftDoc'ga yuboring — yetkazuvchi qo'shish hozircha SoftDoc orqali.
2. ☐ **Sozlamalar (admin).** Sozlamalar → «Korxona ma'lumoti»: nom, telefon, manzil, logotip. «Chek va printer»: chek pastidagi yozuv, printer turi (58 yoki 80 mm). «Kassalar»: kassa ro'yxatini tekshiring. «Modullar»: keraksiz bo'limlarni o'chiring. STIRni o'zgartirmang — u litsenziyaga bog'langan. Video: «Sozlamalar, Telegram va bot orqali buyurtmalar».
3. ☐ **Tovar guruhlari.** Tovar kartotekasi → «Tovar guruhlari» → «Yangi guruh» (masalan: Sut mahsulotlari, Non, Ichimliklar). Sut, non kabi muddatli tovar guruhida «muddat kuzatiladi» va FEFO ni belgilang — bu keyin o'zgarmaydi. So'ng «Narx, aksiya, marja» → «Marja pastki chegarasi»da har yangi guruhga foiz qo'ying: chegarasiz guruhdagi tovarga narx o'rnatilmaydi. Video: «Tovar guruhlari va tovar kartochkasi».
4. ☐ **Tovar kartochkalari — Excel'dan.** Ko'p tovar — Tovar kartotekasi → «Fayldan yuklash»: namuna faylni yuklab oling, to'ldiring (majburiy: Nomi va Guruh; barkod, o'lchov, narx, QQS ixtiyoriy) → «Tekshirish» → «Tasdiqlash va qo'shish». Bittalab — «Yangi tovar qo'shish». Xatoni tovar kartasida tuzating; o'lchov va sotuv turini birinchi kirimdan oldin tekshiring — keyin qulflanadi. Video: «Tovarlarni Excel'dan import qilish».
5. ☐ **Narxlarni tekshirish.** Narx, aksiya, marja sahifasida har tovarning joriy narxi. Importda «qisman» bo'lgan (narxi qo'yilmagan) tovarlarga narxni shu yerda qo'ying. Video: «Narx o'zgartirish va aksiyalar».
6. ☐ **Boshlang'ich qoldiq.** Boshlang'ich qoldiqlar → «Tovar qoldig'i». Har ombor uchun alohida hujjat: javondagi tovar — savdo zaliga, orqa ombordagi — omborga. Kassa faqat savdo zalidan sotadi. Qatorlarni qo'lda yoki Excel'dan kiriting, tekshiring va «Tasdiqlash». Eski tizimdan pul qoldiqlari bo'lsa — «Pul qoldiqlari». Video: «Boshlang'ich qoldiq kiritish».
7. ☐ **Xodimlar va rollar (admin).** «Xodim, rol, audit»: kassirga Kassir, menejerga Mas'ul shaxs roli biriktirilganini tekshiring. Storno va chegirmani faqat Mas'ul shaxs o'z login-paroli bilan tasdiqlaydi. Video: «Kirish, rollar va ruxsatlar».
8. ☐ **Smena ochish.** Kassir o'z logini bilan kiradi va kassadagi boshlang'ich naqdni yozib smena ochadi. Video: «Smena ochish, yopish va Z-hisobot».
9. ☐ **Birinchi savdo.** «Kassaga o'tish», tovarni skanerlang, to'lovni kiriting va F2. Chekni «Cheklar tarixi»dan tekshiring. Video: «Kassada sotish».
10. ☐ **Kun oxiri: Z-hisobot.** Kassadagi naqdni sanang, summani kiriting va «Smenani yopish (Z-hisobot)». Z-hisobot sahifasidagi «Chop etish» uni chek printeri o'lchamida ochadi. O'tgan smenalar — «Z-hisobotlar tarixi»da. Video: «Z-hisobotni chop etish va Z-hisobotlar tarixi».
11. ☐ **Ertasi kuni.** Hisobotlar sahifasida kunlik savdo, tovar va to'lov usullarini tekshiring. Javonda kamaygan tovarni «Javonga chiqarish» bilan ombordan olib chiqing. Video: «Savdo hisobotlari».

Birinchi kun


Tovar guruhlari va tovar kartochkasi

Guruh yaratish, marja chegarasi, tovar qo'shish va tahrirlash, shtrix-kod, sotuv narxi. Video: 2:48.


1. Tovar kartotekasi → «Tovar guruhlari» → «Yangi guruh»: Nomi, Kod (bo'sh = avtomatik), Yuqori guruh, Partiya siyosati (FIFO/FEFO), «muddat kuzatiladi», «markirovka talab qilinadi» → «Guruh yaratish».
2. Guruh nomi ro'yxatning o'zida tahrirlanadi («Saqlash»); keraksiz guruh — «Arxivlash».
3. Narx, aksiya, marja → «Marja pastki chegarasi» → «+ Yangi chegara o'rnatish»: yangi guruh va foiz (masalan 15) → «Chegara o'rnatish».
4. Tovar kartotekasi → «Yangi tovar qo'shish»: SKU, Nomi, Qisqa nomi, Guruh, O'lchov (dona/kg/litr), Sotuv turi (Dona/Vazn), QQS, Muddat (kun) → «Tovar qo'shish».
5. Tovar nomini bosing — tovar kartasi: nom, guruh, QQS, muddatni tahrirlab «Saqlash».
6. Kartada «Barkodlar»: yangi barkod, «asosiy» → «Biriktirish»; xatosi — «O'chirish». Barkodsiz tovar — kartotekada «Ichki barkod yasash».
7. Kartada «Sotuv narxi»: Filial (bo'sh = barcha), Yangi narx, Sabab → «Narxni o'rnatish».



Yangi guruh yaratildi



Guruh bo'yicha marja chegarasi




Tovar kartasi: barkod va narx

> **Eslatma.** Marja chegarasi qo'yilmagan guruhdagi tovarga narx o'rnatilmaydi (importda ham narx qo'yilmaydi). Muddat, markirovka va partiya siyosati guruh yaratilgach o'zgarmaydi. Faol tovari bor guruh arxivlanmaydi — avval tovarlarni boshqa guruhga o'tkazing. Tovar bo'yicha birinchi ombor harakatidan keyin o'lchov birligi va sotuv turi qulflanadi. Har tahrir audit jurnaliga yoziladi.


Tovarlarni Excel'dan import qilish

Namuna fayl, ustunlar, tekshiruv, odatiy xatolar va tasdiqlash. Video: 2:03.


1. Tovar kartotekasi → «Fayldan yuklash».
2. «Namuna faylni yuklab olish» — sarlavhali CSV; Excel'da ochib to'ldiring. Ustunlar tartibi muhim emas.
3. Majburiy: Nomi va Guruh (kartotekada mavjud guruh nomi). Ixtiyoriy: O'lchov (dona/kg/litr), Barkod, Narx, Tur (dona/kg), QQS, Muddat (kunda).
4. Faylni (.xlsx yoki .csv, 5 MB gacha, 5000 qatorgacha) tanlang va «Tekshirish» — bu bosqichda bazaga hech narsa yozilmaydi.
5. «Tuzatish kerak bo'lgan qatorlar» jadvalida har xato qator raqami va sababi bilan.
6. «Tasdiqlash va qo'shish» — faqat to'g'ri qatorlar qo'shiladi. Xato qatorlarni faylda tuzatib, faqat ularni qayta yuklang.



Ustunlar jadvali: Nomi va Guruh majburiy



Tekshiruv natijasi: tayyor va xato qatorlar




Yuklandi: qo'shilgan tovarlar

> **Eslatma.** Import faqat YANGI tovar qo'shadi: mavjud SKU xato beradi, kartochka yangilanmaydi. Fayl guruh yaratmaydi — yangi guruhni «Tovar guruhlari» sahifasida oching va unga marja chegarasini qo'ying. Narx marja chegarasi yoki noma'lum tannarx sababli qo'yilmasa, tovar «qisman» qo'shiladi. Fayl qoldiq kiritmaydi — keyingi qadam: boshlang'ich qoldiq. Eski .xls formatini Excel'da .xlsx qilib saqlang.


Boshlang'ich qoldiq kiritish

Do'kon ochilishidan oldin bor tovarni omborga bir marta kiritish. Video: 2:36.


1. Menyu: Boshlang'ich qoldiqlar → «Tovar qoldig'i».
2. «Yangi hujjat» kartasida omborni tanlang (masalan, «… savdo zali») va «Yangi hujjat» — qoralama ochiladi.
3. «Qator qo'shish»: Tovar (skaner, SKU yoki to'liq nom), Miqdor (vaznli tovar kasr bilan: 47.5), Tannarx (bir dona/kg xarid narxi, so'm), Muddat (muddatli tovarda majburiy) → «Qo'shish».
4. Ko'p tovar: «Excel / CSV dan qo'shish» → fayl → «Yuklash». Ustunlar: Tovar kodi (SKU); Shtrix-kod; Miqdor; Tannarx; Muddat (kk.oo.yyyy). Namuna: «Excel namunasi» tugmasi.
5. Xato qatorlar raqami va sababi bilan ko'rsatiladi (tovar topilmadi, muddat majburiy). Faqat xato qatorlarni tuzatib qayta yuklang — bir xil tovar qayta yuklansa yangi qator bo'lib qo'shiladi.
6. Qatorni «Tahrirlash» yoki «O'chirish» mumkin. Tekshirib bo'lgach «Tasdiqlash».
7. Tasdiqlashda tizim yana tekshiradi (masalan, muddat yozilmagan qator). Muvaffaqiyatli bo'lsa: «Hujjat tasdiqlandi - qoldiq omborga tushdi», hujjat raqam oladi.
8. Natijani «Ombor va partiya» sahifasida ombor tanlab ko'ring.




Yangi qoralama hujjat: ombor, sana, qatorlar soni




Qo'lda kiritilgan qatorlar



Excel yuklandi: 5 ta qo'shildi, 2 ta xato — raqami bilan



Tasdiqlangan hujjat: raqam va summa



Ombor va partiya: savdo zali qoldig'i


> **Eslatma.** Kassa faqat savdo zalidagi qoldiqdan sotadi. Orqa ombor uchun alohida hujjat oching. Har omborga faqat bitta tasdiqlangan boshlang'ich qoldiq hujjati. Tasdiqni bekor qilishni faqat admin qila oladi va faqat bu tovardan hali savdo yoki ko'chirish bo'lmagan bo'lsa. Keyin keladigan tovar — «Qabul va kirim» orqali; sanoqdagi farq — «Inventarizatsiya» orqali. Yetkazuvchi qarzi, seyf/bankdagi naqd — «Pul qoldiqlari» hujjati bilan.

Kassa


Kassada sotish

Skaner, tovar ro'yxati, storno, chegirma, mijoz kartasi, aralash to'lov va chek. Video: 2:21.

1. Tovar skaner bilan yoki tovar ro'yxatidan qo'shiladi.
2. Xato qator — F8 va mas'ul shaxs tasdig'i; chegirma — F6.
3. To'lov: naqd, karta, bonus aralash; qaytim avtomatik. Yakunlash — F2.



Savat




To'lov va qaytim

> **Eslatma.** Savdo zalida qoldiq bo'lmasa tovar sotilmaydi.


Kassa: ochiq cheklar, vaznli tovar, chegirma va tugmalar

Bir vaqtda bir necha chek (slot), kilogrammli tovar, butun chekka chegirma, oxirgi chek, chekni bekor qilish va F-tugmalar. Video: 2:35.


1. Mijoz rastaga qaytsa: «Ochiq cheklar» blokida «+ Yangi chek» — keyingi mijozga yangi slot; avvalgi chek o'z slotida turadi.
2. Slotni bosib istalgan ochiq chekka qayting: savat joyida. Har slotda summa va qatorlar soni.
3. Vaznli tovar: «Miqdor» maydoniga kilogramm (masalan 1.25), keyin tovarni skanerlang.
4. F6 → «Nimaga»: qator yoki «Butun chek»; % yoki so'm; sabab majburiy → «Qo'llash». Limitdan oshsa mas'ul shaxs login va paroli so'raladi.
5. To'lov: «Aniq» — qaytimsiz; 50 000 / 100 000 / 200 000 — tez summa; ekran klaviaturasi oxirgi tegilgan to'lov maydoniga yozadi. Yakunlash — F2.
6. F9 — shu smenadagi oxirgi chek (qayta chop etish uchun).
7. Mijoz voz kechsa: Esc → sabab → «Bekor qilish».




Ochiq cheklar: ikkita slot



Vaznli tovar: 1.25 kg



Butun chekka chegirma: limitdan oshsa tasdiq




Slotga qaytish va qaytim

> **Eslatma.** Tugmalar: F2 — yakunlash, F6 — chegirma, F8 — qatorni olib tashlash (mas'ul shaxs), F9 — oxirgi chek, F10 — smena, Esc — bekor. Barkod maydonida ham ishlaydi. Slot — bazadagi tasdiqlanmagan chek: kompyuter o'chib yonsa ham qoladi. Slotlar soni — Sozlamalar → Kassa → «Parallel chek (slot) soni» (sukut 10). Ochiq (tasdiqlanmagan) slot qolsa smena yopilmaydi — avval tasdiqlang yoki bekor qiling. Kassir chegirma limiti — Sozlamalar → Kassa → «Kassir chegirma limiti» (sukut 5%). Donali tovarga kasr miqdor kiritib bo'lmaydi. Tarozi etiketkasini kassada skanerlash hozircha ulanmagan.


Smena ochish, yopish va Z-hisobot

Boshlang'ich naqd, naqd kirim/chiqim, X-hisobot, smenani yopish va Z-hisobot. Video: 1:53.


1. Kassir kiradi; ochiq smena bo'lmasa, «Smena ochish» kartasi chiqadi: «Boshlang'ich naqd summa» → «Smenani ochish».
2. Kun davomida: «Naqd kirim / chiqim / inkassatsiya» — tur, summa, izoh → «Yozish».
3. Sotuv: «Kassaga o'tish». Kassadan smena sahifasiga — F10.
4. Oraliq natija: «X-hisobot (oraliq)».
5. Kun oxiri: «Kassirning sanagan naqdi» → «Smenani yopish (Z-hisobot)». Z-hisobot sahifasida «Chop etish» va «Z-hisobotlar tarixi».



Ochiq smena: raqam, ish kuni, boshlang'ich naqd



X-hisobot




Z-hisobot: «Z-hisobotlar tarixi» va «Chop etish»

> **Eslatma.** Bitta kassada bitta ochiq smena; kassir boshqa kassada ochiq smenasi bo'lsa, yangisini ocholmaydi. Tasdiqlanmagan chek qolsa smena yopilmaydi. Sanalgan va hisoblangan naqd farqi audit jurnaliga yoziladi, Z-hisobot varag'ida va Z-hisobotlar tarixida «Farq» bo'lib ko'rinadi. Sozlamada yoqilsa, smena yopilganda hisobot Telegram'ga keladi.


Z-hisobotni chop etish va Z-hisobotlar tarixi

Z-hisobot varag'i (58/80 mm), yopilgan smenalar ro'yxati, farq va filtrlar. Video: 1:36.

1. Smenani yopgach Z-hisobot sahifasida «Chop etish» — chek printeri o'lchamidagi varaq; varaqdagi «Chop etish» printerga yuboradi.
2. Varaqda: kassa, smena, kassir, ochilish/yopilish, savdo, qaytarish, storno, hisoblangan va sanalgan naqd, farq, imzolar.
3. «Z-hisobotlar tarixi» (smena sahifasi tepasida yoki Z-hisobot sahifasida): Dan, Gacha, Kassa → «Ko'rsatish».
4. Har qatorda «Ko'rish» va «Chop etish».



Z-hisobot varag'i: sanalgan naqd va farq




Z-hisobotlar tarixi

> **Eslatma.** Qayta chop etilgan Z-hisobot asl bilan bir xil: raqamlar smena yopilganda qotiriladi. Sukut bo'yicha oxirgi 30 kun ko'rsatiladi. Kassir faqat o'zi ochgan yoki yopgan smenalarni ko'radi; menejer va admin — hammasini (Hisobotlar → «Z-hisobotlar tarixi»). Ro'yxatda faqat yopilgan smenalarning Z-hisobotlari; X-hisobot u yerda chiqmaydi.


Chek, chop etish va elektron chek (QR)

Tasdiqlangan chek, 58/80 mm chop etish va mijoz telefonidagi elektron nusxa. Video: 1:18.

1. F2 dan keyin tepada tasdiq xabari va qaytim; xabardagi havola chekni ochadi (yoki F9 — oxirgi chek).
2. «Chekni chop etish» — alohida sahifa, sozlamadagi printer o'lchamida; «Chop etish» brauzer orqali printerga yuboradi.
3. Chekdagi QR — elektron chek havolasi. Mijoz telefon kamerasi bilan skanerlaydi, login kerak emas; «Saqlash / chop etish».



Ekrandagi chek va elektron chek QR kodi




Elektron chek (mijoz telefoni)

> **Eslatma.** Elektron chekda faqat qog'ozdagi ma'lumot: mijoz ismi, bonus va ichki izoh ko'rinmaydi. Chek printeri (58/80 mm), chek pastidagi yozuv va chek tili — Sozlamalar → «Chek va printer» (jonli namuna bilan, 16-video). «Chekda fiskal QR» yoqilgan va fiskal provayder ulangan bo'lsa, QR soliq tekshiruvi havolasi bo'ladi. Provayder ulanmagan bo'lsa chekda «Fiskal holat: Navbatda» yoziladi — bu holda sozlamani o'chirib turing. Mijozning qog'oz chekini qayta chop etish: «Cheklar tarixi» → chek → «Chekni chop etish».


Cheklar tarixi, qaytarish va storno

Qisman qaytarish varaqasi va menejer tasdig'i bilan butun chekni bekor qilish. Video: 2:02.


1. Smena sahifasi → «Cheklar tarixi (storno, qaytarish)». Boshqa kun: sana va kassa filtri.
2. Chekni oching: tovarlar, to'lov, «Chekni chop etish».
3. Qaytarish: qaytadigan miqdor, holati (Yaroqli — savdo zaliga / Nuqsonli — hisobdan chiqadi), sabab, izoh (majburiy), pulni qaytarish usuli → «Qaytarishni rasmiylashtirish».
4. Qaytarish varaqasini chop eting va mijozga imzolating.
5. Butun chek xato: «Chekni bekor qilish (storno)» — sabab, izoh, mas'ul shaxs login va paroli → «Chekni bekor qilish».



Chek tafsiloti



Qaytarish varaqasi



Bekor qilingan chek va tarix


> **Eslatma.** Storno — chek tasdiqlangandan keyin 24 soat ichida (sozlamada o'zgaradi); keyin faqat qaytarish. Qaytarish muddati sozlamada (odatda 14 kun). Naqd qaytarish uchun shu kassada smena ochiq bo'lishi kerak. Kassir o'z amalini o'zi tasdiqlay olmaydi. Qaytarish qaytarish kunidagi savdo va foyda hisobotlaridan ayriladi; Z-hisobotda («Qaytarish summasi») va cheklar tarixida («Qaytarilgan») ham ko'rinadi.

Tovar va ombor


Tovar qo'shish va kirim

Tovar kartochkasi, barkod, ichki barkod va kirim hujjati. Video: 1:53.

1. Tovar kartotekasi → «Yangi tovar qo'shish».
2. Barkod biriktirish yoki ichki barkod yaratish, etiketka.
3. Qabul va kirim: qoralama hujjat, qatorlar, «Hujjatni tasdiqlash».



Yangi tovar formasi




Tasdiqlangan kirim


Kirimni fayldan yuklash, yuk xati va etiketka

Excel'dan kirim, xatolar, yuk xati surati, barkodsiz tovarga etiketka. Video: 2:30.

1. Qabul va kirim → «Kirimni fayldan yuklash» → «Namuna faylni yuklab olish».
2. Ustunlar: Tovar kodi (SKU) yoki Shtrix-kod; Miqdor; Kirim narxi (so'm); Muddat (kk.oo.yyyy, muddatli tovarda majburiy).
3. Ombor, Yetkazuvchi, Hujjat raqami (ixtiyoriy), fayl (.xlsx/CSV, 5 MB) → «Tekshirish» — qoldiq hali o'zgarmaydi.
4. Ko'rib chiqish: har qator «to'g'ri» yoki xato sababi bilan → «N ta qatorni kirim qil» — hujjat tasdiqlangan holda ochiladi.
5. Hujjatda «Yuk xati»: JPG/PNG/PDF (har biri 10 MB, 10 sahifagacha) → «Biriktirish».
6. Barkodsiz donali tovarni qo'lda kirim qilib tasdiqlasangiz, ichki shtrix-kod yasaladi va «Etiketka chop etishga tayyorlash» ochiladi: nusxa soni → «Chop etish sahifasini ochish».



Ko'rib chiqish: to'g'ri va xato qatorlar



Yuk xati surati biriktirildi




Etiketkalar

> **Eslatma.** Import kelishilgan va haqiqiy narxni bir xil yozadi; narx farqi bo'lsa kirimni qo'lda kiriting. Xato qatorlar kirmaydi — faylda tuzatib, faqat ularni qayta yuklang. Fayldan importda ichki barkod yasalmaydi — kartotekada «Ichki barkod yasash». «Yuk xati surati» va «Kirimda avtomatik yasalsinmi» — Sozlamalar (Modullar / Ombor).


1C bilan almashinuv

1C dan tovarlarni yuklash (CommerceML), tekshiruv, tasdiq va savdoni 1C ga eksport qilish. Video: 2:00.


1. 1C da «Obmen s saytom» (CommerceML) orqali tovarlarni faylga chiqaring — import.xml (katalog), offers.xml (narx va qoldiq) yoki ikkalasi bitta zip arxivda.
2. Tovar kartotekasi → «1C almashinuvi».
3. «import.xml yoki zip arxiv» maydoniga faylni, kerak bo'lsa «offers.xml (ixtiyoriy)» ni tanlang (har fayl 20 MB gacha, UTF-8 yoki Windows-1251) → «Tekshirish» — bazaga hali hech narsa yozilmaydi.
4. Natija: yangi tovar, yangilanadi, o'zgarishsiz (va xato) soni; «Tovarlar» jadvalida har qator holati va tafsiloti (guruh, o'lchov, narx, shtrix-kod).
5. «Tasdiqlash va yozish» → «Kartotekani ochish» — yangi tovarlar guruhi, narxi va shtrix-kodi bilan.
6. Savdoni 1C ga: Hisobotlar → «1C ga savdo eksporti» (yoki shu sahifaning pastki bloki) → Dan, Gacha, Filial → «Excel (xlsx)» yoki «orders.xml».



Tekshiruv natijasi: yangi va yangilanadigan tovarlar



1C dan yuklandi



1c-savdo-2026-09-01_2026-09-30.xlsx Excel · «Savdo» varag'i

	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K	L
1	Sana	1C Id	Artikul	Shtrix-kod	Tovar	O'lchov	Sotilgan miqdor	Sotuv summasi	Qaytarilgan miqdor	Qaytarish summasi	Sof miqdor	Sof summa
2	01.09.2026	8f3a1c20-0006	COCA-1.5L	4780000000045	Gazli suv "Coca-Cola" 1.5L	шт	2	28 000	0	0	2	28 000
3	01.09.2026	8f3a1c20-0007	KUNGABOQAR-1L	4780000000106	Kungaboqar yog'i "Oltin dan" 1L	шт	4	91 600	0	0	4	91 600
4	01.09.2026		PECHENYE-YUBILEYNOE-400G	4780000000120	Pechenye "Yubileynoe" 400g	шт	4	89 200	0	0	4	89 200
5	01.09.2026		SHAKAR-VAZN	4780000000113	Shakar (vazn)	кг	5	111 500	0	0	5	111 500
6	01.09.2026		UN-OQ-OLTIN-2KG		Un "Oq oltin" 1-nav 2kg	шт	4	74 000	0	0	4	74 000
7	02.09.2026	8f3a1c20-0006	COCA-1.5L	4780000000045	Gazli suv "Coca-Cola" 1.5L	шт	2	28 000	0	0	2	28 000
8	02.09.2026	8f3a1c20-0007	KUNGABOQAR-1L	4780000000106	Kungaboqar yog'i "Oltin dan" 1L	шт	6	137 400	0	0	6	137 400
9	02.09.2026		PECHENYE-YUBILEYNOE-400G	4780000000120	Pechenye "Yubileynoe" 400g	шт	6	133 800	0	0	6	133 800
10	02.09.2026		UN-OQ-OLTIN-2KG		Un "Oq oltin" 1-nav 2kg	шт	3	55 500	0	0	3	55 500
11	03.09.2026	8f3a1c20-0006	COCA-1.5L	4780000000045	Gazli suv "Coca-Cola" 1.5L	шт	2	28 000	0	0	2	28 000
12	03.09.2026	8f3a1c20-0007	KUNGABOQAR-1L	4780000000106	Kungaboqar yog'i "Oltin dan" 1L	шт	2	45 800	0	0	2	45 800
13	03.09.2026		PECHENYE-YUBILEYNOE-400G	4780000000120	Pechenye "Yubileynoe" 400g	шт	4	89 200	0	0	4	89 200
14	03.09.2026		SHAKAR-VAZN	4780000000113	Shakar (vazn)	кг	1	22 300	0	0	1	22 300
15	03.09.2026		UN-OQ-OLTIN-2KG		Un "Oq oltin" 1-nav 2kg	шт	4	74 000	0	0	4	74 000
16	04.09.2026	8f3a1c20-0006	COCA-1.5L	4780000000045	Gazli suv "Coca-Cola" 1.5L	шт	6	84 000	0	0	6	84 000
17	04.09.2026	8f3a1c20-0007	KUNGABOQAR-1L	4780000000106	Kungaboqar yog'i "Oltin dan" 1L	шт	3	68 700	0	0	3	68 700
18	04.09.2026		PECHENYE-YUBILEYNOE-400G	4780000000120	Pechenye "Yubileynoe" 400g	шт	2	44 600	0	0	2	44 600
...	...											
73	RASTA · LIC-2026-0003 · 2026-10-27 · SAVAT SAVDO MChJ (demo)											


1C uchun savdo Excel fayli

> **Eslatma.** Qayta yuklashda tovar 1C Id, shtrix-kod, keyin artikul bo'yicha topiladi — dublikat yaratilmaydi; faqat nom, narx va barkod yangilanadi. 1C da o'chirish belgisi qo'yilgan tovar o'tkazib yuboriladi. Fayldagi guruh kartotekada bo'lmasa, yangi guruh yaratiladi — unga marja chegarasini qo'ying, aks holda narx qo'yilmaydi. «Qoldiqni ham olish» qoldiqni faqat boshlang'ich qoldiq qoralamasiga yozadi (mavjud qoldiqqa qo'shiladi): tannarxni to'ldirib, hujjatni o'zingiz tasdiqlaysiz. Faqat yangi do'kon uchun. Excel faylda ikki varaq: «Savdo» (kun bo'yicha tovar yig'masi: 1C Id, artikul, shtrix-kod, sotilgan/qaytarilgan miqdor va summa) va «To'lov turlari». 1C da «Zagruzka dannyx iz tablichnogo dokumenta» bilan yuklanadi. orders.xml — har chek alohida hujjat. Import uchun tovar boshqarish huquqi, eksport uchun hisobot ko'rish huquqi kerak; davr 366 kundan oshmasin.


Yetkazuvchilar va buyurtma

Yetkazuvchi qarzi va reytingi, minimal qoldiq qoidasi, avto-buyurtma va qo'lda buyurtma. Video: 1:54.


1. Menyu «Yetkazuvchi va buyurtma»: kod, nomi, telefon, qarz, reyting (90 kun).
2. «+ Yangi qoida qo'shish»: Tovar, Ombor, Yetkazuvchi, Minimal qoldiq, Tavsiya etilgan buyurtma → «Qoida qo'shish».
3. «Avto-buyurtma taklifi»: Filial, Sana → «Avto-buyurtma yaratish» — min'dan past tovarlar uchun yetkazuvchi bo'yicha qoralama.
4. «Qo'lda buyurtma yaratish»: Filial, Yetkazuvchi, Ombor, Kutilgan sana → qoralama; qatorlar: Tovar, Miqdor, Kelishilgan narx.
5. «Buyurtmani tasdiqlash» — hujjat raqami beriladi.



Minimal qoldiq qoidasi



Avto-buyurtma qoralamasi




Tasdiqlangan buyurtma

> **Eslatma.** Yangi yetkazuvchini hozircha SoftDoc qo'shadi. Avto-buyurtma narxi — shu yetkazuvchidan oxirgi tasdiqlangan kirim narxi; yetkazuvchisiz qoida kirmaydi. Buyurtma tasdig'i qoldiqni o'zgartirmaydi; tovar kelganda kirim «Qabul va kirim»da alohida qilinadi. Bekor qilish — sabab bilan.


Ombor qoldig'i, partiyalar va qo'shimcha ombor

Qoldiq jadvali, FIFO/FEFO navbati, muddati yaqin partiyalar, yangi ombor ochish. Video: 1:49.


1. Menyu «Ombor va partiya» → Ombor tanlang.
2. «Qoldiq jadvali» → «Partiyalar»: partiya kodi, miqdor, tannarx — birinchi qatordagi birinchi sotiladi.
3. «Muddati yaqin/o'tgan partiyalar»: qolgan kun, qizil/sariq/yashil.
4. Admin: Sozlamalar → «Omborlar» → Filial, Nomi, Kod (bo'sh = avtomatik) → «Ombor qo'shish».
5. Yangi omborni kirim, boshlang'ich qoldiq yoki o'tkazma bilan to'ldiring.



Partiyalar navbati



Muddati yaqin partiyalar




Yangi ombor qo'shildi

> **Eslatma.** Kassa faqat savdo zalidan sotadi; ikkinchi savdo zali ochilmaydi (qo'shimcha ombor — «Ombor» turi). Omborlar soni litsenziya bilan cheklanadi. Javon holati filialning asosiy ombori bo'yicha hisoblanadi.


Ombordan savdo zaliga: javonga chiqarish

Javon holati, bo'shlik topshiriqlari, javonga chiqarish hujjati. Video: 1:41.

1. Menyu «Javonga chiqarish»: har tovarning javon va ombor qoldig'i, holat.
2. «Bo'shlik topshiriqlari»: nima va qancha chiqarish kerak; bajarilgach «Bajarish».
3. «Javonga chiqarish hujjati»: Manba (ombor) va Maqsad (javon/savdo zali) → «Hujjat yaratish (qoralama)».
4. Tovar va miqdor → «Qator qo'shish». Partiya avtomatik (FIFO/FEFO).
5. «Hujjatni tasdiqlash» — ombordan chiqim va savdo zaliga kirim birga yoziladi.



Javon holati




Javonga chiqarish hujjati

> **Eslatma.** Teskari yo'l: «Javondan omborga qaytarish». Filialdan filialga o'tkazma — «Filiallararo o'tkazma» (sozlamalar → Modullar). Omborlar orasida ko'chirish — «Filiallararo o'tkazma»; qo'shimcha omborni admin Sozlamalar → Omborlar'da ochadi.


Omborlar va filiallar orasida o'tkazma

O'tkazma hujjati, jo'natish, yo'lda, qabul. Video: 1:43.

1. Menyu «Filiallararo o'tkazma» → «Yangi o'tkazma»: Filial, Manba ombor, Maqsad ombor, Yo'ldagi ombor (majburiy), Mas'ul → «O'tkazma yaratish».
2. «Qator qo'shish»: Tovar, Jo'natish miqdori → «Qo'shish».
3. «Jo'natish» — tovar «yo'lda»: hech bir ombor qoldig'ida emas.
4. «Qabulni tasdiqlash»: har qatorga haqiqiy qabul miqdori; kam kelsa sabab, mas'ul xodim, tafsilot.



Yangi o'tkazma formasi



Qabul qilingan o'tkazma


> **Eslatma.** Partiya jo'natishda FIFO/FEFO bo'yicha avtomatik. Bir filial ichidagi omborlar orasida ham shu bo'lim; ombor ↔ savdo zali — «Javonga chiqarish». Modul Sozlamalar → Modullar'da o'chirilishi

> mumkin.

Inventarizatsiya (TSD va telefon)

Sanoq, skanerlash, farq jadvali va tasdiqlash. Video: 1:42.

1. Inventarizatsiya → filial, ombor, qamrov (to'liq yoki qisman) → «Sanoqni boshlash».
2. Skanerlash va miqdor; «Sanoqni yakunlash» — farq jadvali.
3. Har farqqa sabab; tasdiqlashda korrektirovka yaratiladi.




Farq jadvali


Yetkazuvchiga qaytarish va hisobdan chiqarish

Nuqsonli tovarni qaytarish, brak/singan tovarni hisobdan chiqarish. Video: 1:47.

1. Menyu «Qaytarish / hisobdan chiqarish».
2. Yetkazuvchiga qaytarish: Filial, Yetkazuvchi, Ombor (Kirim hujjati id ixtiyoriy) → «Hujjat yaratish»; qator: Tovar, Miqdor, Sabab kodi, Sabab matni → «Hujjatni tasdiqlash» — yetkazuvchi qarzi kamayadi.
3. Hisobdan chiqarish: Filial, Ombor, Turi (Shikastlangan, Muddati o'tgan, Kamomad, Ichki ehtiyoj, Boshqa) → qator → «Hujjatni tasdiqlash».
4. Hujjatlar pastdagi ikki ro'yxatda.



Tasdiqlangan qaytarish




Hujjatlar ro'yxati

> **Eslatma.** Sabab matni majburiy. Sanoq hujjati faqat havola — kamomad ikkinchi marta ayrilmaydi. Muddat kuzatiladigan tovar (sut, non) uchun hozircha partiya id talab qilinadi — ekranda ko'rinmaydi; SoftDoc'ga murojaat qiling yoki farqni inventarizatsiya bilan tuzating. Tasdiqlangan hujjat sabab bilan bekor qilinadi.


Tarozi va vaznli tovar

Tortish va etiketka barkodi, barkod bo'yicha tekshirish, tara og'ish jurnali, qaytatortish va og'ish hisoboti. Video: 1:41.


1. Menyu «Vaznli tovar va tarozi» → «Tortish»: Tarozi, Filial, Tovar (vazn bo'yicha sotiladigan), Tara turi (ixtiyoriy), Brutto (kg) → «Tortish (etiketka yaratish)».
2. Natija: netto, summa va etiketka barkodi; «So'nggi tortishlar» jadvalida.
3. «Barkod bo'yicha qidirish»: etiketka barkodi → tovar, netto, summa.
4. «Tara og'ish jurnali»: kutilgan va haqiqiy tara, sabab kodi, sabab matni (majburiy) → «Jurnalga yozish».
5. «Qaytatortish (nazoratchi)»: tovar, deklaratsiya va haqiqiy og'irlik → «Natijani yozish» (faqat mas'ul shaxs).
6. «Og'ish hisoboti»: Filial, Sanadan, Sanagacha → «Hisobot» (menejer, admin).



Tortish natijasi: netto, summa, etiketka barkodi



Qaytatortish natijasi



Og'ish hisoboti


> **Eslatma.** Tarozi etiketkasini kassada skanerlash hozircha ulanmagan: kassada vaznli tovar «Miqdor» maydoniga kilogramm yozib sotiladi (18-video). Yangi tara turi — sahifa pastida «+ Yangi tara turi». Tovar vaznli bo'lishi uchun kartochkada sotish turi «kg» bo'lishi kerak.

Narx, aksiya, mijoz


Narx o'zgartirish va aksiyalar

Narx o'rnatish, narx tarixi, marja nazorati, aksiya yaratish. Video: 1:59.


1. Menyu «Narx, aksiya, marja»: joriy narx va marja (qizil — zarar).
2. «Narx o'rnatish»: Tovar, Filial (bo'sh = barcha), Yangi narx, Sabab (majburiy), Sabab kodi → «Narxni o'rnatish».
3. Marja guruh chegarasidan past bo'lsa narx «Tasdiq kutayotgan narxlar»ga tushadi — mas'ul shaxs tasdiqlaydi yoki rad etadi.
4. Har tovarning «tarix» havolasi: kim, qachon, eski/yangi narx, sabab (o'zgarmas jurnal).
5. «Aksiya yaratish»: Kod, Nomi, Nishon (bitta tovar yoki guruh), Boshlanish/Tugash, Aksiya turi (foiz, belgilangan narx, N+M, muddat markdown, chek summasidan), shart maydonlari → «Aksiya yaratish».
6. Ro'yxatda «Tahrirlash» (chegirma, sana) va «To'xtatish».



Narx o'rnatildi



Narx tarixi




Aksiya yaratish formasi

> **Eslatma.** Narx va aksiyani admin va menejer boshqaradi. Narx o'zgargandan keyin etiketka avtomatik chiqmaydi — etiketkani alohida chop eting. Aksiya kassada o'zi qo'llanadi; aksiyalar moduli o'chirilsa hech bir aksiya ishlamaydi.

Sodiqlik kartasi va bonus

Mijoz ro'yxati, karta berish, bonus tarixi va karta partiyasi. Video: 1:40.

1. Sodiqlik va bonus: mijozni ro'yxatdan o'tkazish va karta berish.
2. Kassada karta skanerlanadi, bonus yig'iladi va to'lovda ishlatiladi.




Mijoz kartalari


Sodiqlik kartasi dizayni va chop etish

Karta dizayni (jonli ko'rik), fon rasmi, o'lcham, partiya, bosmaxona fayli, A4 chop, CSV. Video: 2:22.


1. Mijoz va sodiqlik → «Karta dizayni»: ko'rik haqiqiy o'lchamda (old va orqa).
2. Nom, kichik yozuv, fon/yozuv/urg'u rangi, raqam joyi (pastda/yuqorida/faqat orqada), QR — ko'rik darhol yangilanadi; «Saqlash».
3. «Fon rasmlari»: old va orqa uchun alohida PNG/JPG/WEBP (3 MB gacha); orqa yo'q bo'lsa old rasmi ishlatiladi.
4. Karta o'lchami: CR80, vizitka 90×50, 85×55, CR79, breloq 54×30 yoki o'zingiz; bosmaxona chiqindisi (mm).
5. «Karta partiyalari»: soni (2000 gacha) va izoh → «Partiya yaratish» (EAN-13 raqamlar).
6. «Bosmaxona uchun»: har sahifada bitta yuz, chiqindi va kesish belgilari; tartib: avval oldlar yoki «old-orqa juft».
7. Chop oynasi: Save as PDF, Margins None, Scale 100%, Background graphics yoqilgan; PDF + CSV bosmaxonaga.
8. «O'zim chop etaman»: A4 da 10 ta karta, faqat old tomon.



Karta dizayni va jonli ko'rik



Fon rasmi yuklangan karta




Bosmaxona fayli

> **Eslatma.** Shtrix-kod bloki ataylab oq fonda — sozlanmaydi. Karta prefiksini birinchi partiyadan OLDIN qo'ying, keyin o'zgartirmang. Kassada karta skanerlash — «Sodiqlik kartasi va bonus» videosida.


Yetkazish buyurtmalari: chek, to'lov va holatlar

Telegram bot buyurtmasini qabul qilish, kassada yopish, holat yuritish, bekor qilish. Video: 1:51.


1. Menyu «Yetkazish buyurtmalari» (kassir ham ko'radi): raqam, vaqt, mijoz, telefon, manzil, summa, holat; yuqorida holat filtri.
2. Buyurtmani oching → «Chekka aylantirish (kassa)» — kassada qoralama chek (smena ochiq bo'lishi shart), mijozga «qabul qilindi» xabari.
3. Kassada chek «Ochiq cheklar»da: naqd/karta va F2.
4. «Keyingi holatga →»: Qabul qilindi → Yetkazilyapti → Yetkazildi; har o'zgarishda mijozga Telegram xabari.
5. «Bekor qilish» — yetkazilgan buyurtmani bekor qilib bo'lmaydi.



Buyurtmalar ro'yxati



Buyurtma va amallar



Buyurtma kassada qoralama chek


> **Eslatma.** Qoldiq kassadagi chek tasdiqlanganda kamayadi. Modul va bot kalitlari — «Sozlamalar» videosida.

Hisobotlar

Hisobotlar va dashboard (umumiy ko'rinish)

Asosiy hisobotlarga qisqa sayohat va rahbar dashboardi. Video: 1:46.

1. Hisobotlar sahifasidan kerakli hisobotni oching, davrni tanlang.




Rahbar dashboard


Savdo hisobotlari

Kunlik savdo dinamikasi, tovar bo'yicha savdo, to'lov usullari, kassir reytingi. Video: 2:16.


1. Menyu «Hisobotlar» — barcha hisobotlar bitta sahifada.
2. Filtr: Dan, Gacha va Filial (bo'sh = barcha filial) → «Ko'rsatish».
3. Kunlik savdo dinamikasi: jami tushum, o'rtacha kunlik, eng kuchli kun, cheklar; kun bo'yicha jadval.
4. Tovar bo'yicha savdo: miqdor, tushum, ulush; foyda va marja (moliya huquqi bilan).
5. To'lov usullari: naqd, karta, bonus — cheklar, summa, ulush.
6. Kassir reytingi: bir kun bo'yicha chek soni, o'rtacha chek, storno %; pastda 30 kunlik storno tahlili.



Kunlik savdo dinamikasi



Tovar bo'yicha savdo




Kassir reytingi

> **Eslatma.** Faqat tasdiqlangan cheklar hisoblanadi; storno qilingan chek chiqib ketadi. Mijoz qaytarishi qaytarish qilingan kunda ayriladi (alohida «Qaytarish» ustuni). Kirim va inventarizatsiya savdo hisobotiga ta'sir qilmaydi. «Excel» tugmasi o'sha filtr bilan .xlsx yuklaydi (kassir reytingida yo'q).


Foyda, ombor qiymati, ABC/XYZ va aksiya hisobotlari

Oylik foyda, ombor qoldig'i qiymati, ABC/XYZ va aksiya samaradorligi. Video: 2:06.


1. Oylik foyda: Oy va Filial → Sotuv, Qaytarish, Sof tushum, Tannarx, Yalpi foyda, Ish haqi, Ish haqidan keyingi foyda.
2. Ombor qoldig'i qiymati: joriy holat, tannarxda; Ombor filtri bilan tovar kesimi.
3. ABC/XYZ: Filial, davr → A/B/C (tushum ulushi), X/Y/Z (barqarorlik); pastda o'lik tovar.
4. Aksiya samaradorligi: berilgan chegirma va har aksiya bo'yicha cheklar, miqdor, tushum.



Oylik foyda



Ombor qoldig'i qiymati




ABC/XYZ

> **Eslatma.** Ombor qiymatini kirim, sotuv, qaytarish, hisobdan chiqarish, o'tkazma va inventarizatsiya o'zgartiradi. Qaytarish ayriladi; nuqsonli qaytarishning tannarxi qaytmaydi (yo'qotish). Excel: oylik foyda va qoldiq qiymatida bor; ABC/XYZ va aksiyada yo'q.


Hisobotlar: Excel va mijoz qaytarishlari

Barcha hisobotlar sahifasi, hisobotlarda qaytarish, Excel'ga yuklab olish. Video: 2:03.


1. Menyu «Hisobotlar»: bo'limlar bo'yicha, har biri savol bilan; huquq yetmaganlari ko'rinmaydi.
2. Kunlik savdo, tovar savdosi, to'lov usullari: Sotuv, Qaytarish, Tushum ustunlari.
3. «Excel» tugmasi: o'sha davr va filial bilan .xlsx; pastda Jami, oxirgi qatorda dastur/litsenziya belgisi.
4. Tovar savdosi Excel'ida davrdagi BARCHA tovar (ekrandagi top 200 emas); tannarx/foyda — moliya huquqi bilan.



Barcha hisobotlar



Qaytarish ustuni


tovar-savdo-2026-09-01_2026-09-30.xlsx Excel

	A	B	C	D	E	F	G	H	I	J
1	**Tovar**	**Sotilgan miqdor**	**Qaytarilgan miqdor**	**Sof miqdor**	**Sotuv**	**Qaytarish**	**Tushum**	**Tannarx**	**Foyda**	**Marja %**
2	Shakar (vazn)	59.85	0	59.85	1 326 750	0	1 326 750	946 187	380 563	28.7
3	Sut "Andijon" 2.5% 1L	40	0	40	1 001 200	0	1 001 200	492 840	508 360	50.8
4	Pechenye "Yubileynoe" 400g	45	0	45	984 200	0	984 200	708 292	275 908	28
5	Un "Oq oltin" 1-nav 2kg	46	0	46	842 675	0	842 675	818 800	23 875	2.8
6	Kungaboqar yog'i "Oltin dan" 1L	36	1	35	818 675	22 900	795 775	623 000	172 775	21.7
7	Gazli suv "Coca-Cola" 1.5L	32	1	31	446 600	14 000	432 600	337 683	94 917	21.9
8	Andijon noni 400g	39	0	39	156 000	0	156 000	111 423	44 577	28.6
9	Non "Bo'g'irsoq"	8	0	8	89 600	0	89 600	22 856	66 744	74.5
10	**Jami**				**5 665 700**	**36 900**	**5 628 800**	**4 061 081**	**1 567 719**	
11										
12	RASTA · LIC-2026-0003 · 2026-10-20 · SAVAT SAVDO MChJ (demo)									


Tovar savdosi Excel fayli

> **Eslatma.** Qaytarish qaytarish qilingan kunda ayriladi (Z-hisobot bilan bir xil). To'lov usullarida qaytarilgan pul berilgan usuldan ayriladi; pulsiz qaytarish kirmaydi. Excel: kunlik savdo, tovar savdosi, to'lov usullari, oylik foyda, qoldiq qiymati. ABC/XYZ va aksiya samaradorligida yo'q.


Moliya: yetkazuvchi qarzi, to'lov va akt-sverka

Smena pullari, yetkazuvchiga qarz va to'lov, akt-sverkani kelishish. Video: 2:00.


1. Menyu «Qarz va akt-sverka» (faqat mas'ul shaxs va admin). Yuqorida smena: ochilish, naqd/karta tushum, inkassatsiya, yopilish (avtomatik); «Boshqa smena» ro'yxati.
2. «Yetkazuvchi qarzi»: joriy qarz, eng yaqin to'lov muddati, akt-sverka holati, jami qarz. Qarz kirim tasdiqlanganda o'zi qo'shiladi.
3. To'lov: yetkazuvchi, summa (faqat raqam), to'lov usuli, kassa hisobi (bo'sh = bank) → «To'lov hujjatini yaratish» (qoralama) → jadvalda «Tasdiqlash» — qarz kamayadi.
4. Akt-sverka: yetkazuvchi, davr boshi/oxiri, ularning qoldig'i (keyinroq ham) → «Akt-sverka tuzish». Bizning qoldiq jurnaldan hisoblanadi.
5. Farq bo'lsa: qatorlarda «Ularda» ga yetkazuvchi raqamini yozing. «Yetkazuvchi qoldig'ini kiritish» → farq 0 → «Akt-sverkani kelishish».



Smena pullari



Yetkazuvchi qarzi



Kelishilgan akt-sverka


> **Eslatma.** Qoralama to'lov qarzga ta'sir qilmaydi; tasdiqlangan to'lovni sabab bilan bekor qilish mumkin. Kassa tanlanmasa kassa harakati yozilmaydi (bank orqali). Akt faqat farq 0 bo'lsa kelishiladi; kelishilgan akt tahrirlanmaydi. Alohida xarajat hujjati bu bo'limda yo'q — kassadan chiqim smena sahifasida «Naqd chiqim».

Sozlamalar va xodimlar


Kirish, rollar va ruxsatlar

To'rtta rol, rol biriktirish, rolga ruxsat berish, bloklash va audit. Video: 1:59.

1. Har xodim o'z login va paroli bilan kiradi («Kirish»).
2. Admin: menyu «Xodim, rol, audit» — rol va ruxsatlar matritsasi (Kassir, Omborchi, Mas'ul shaxs, Admin).
3. «Rol biriktirish»: Xodim, Rol, Filial (bo'sh = barcha filial) → «Biriktirish».
4. «Rolga ruxsat berish»: Rol va Ruxsat → «Ruxsat berish» — shu roldagi hamma xodimga.
5. Xodim ketsa — jadvalda «Bloklash»: u kira olmaydi, tarixi saqlanadi. Qaytarish — «Faollashtirish».
6. Har o'zgarish audit jurnaliga yoziladi (pastda, filtr bilan).



Rollar matritsasi




Xodimlar va rollar

> **Eslatma.** Yangi login va parol — shu bo'limda «Yangi foydalanuvchi» va «Parolni o'rnatish» (batafsil: «Yangi foydalanuvchi va parol» videosi). Ruxsatlar rolga beriladi; alohida xodimga ruxsat belgilash yo'q. Mas'ul shaxs (menejer) standart holatda kassada sotmaydi va foydalanuvchilarni boshqarmaydi.


Yangi foydalanuvchi va parol

Admin login ochadi, unutilgan parolni tiklaydi; xodim o'z parolini almashtiradi. Video: 1:54.


1. Admin: «Xodim, rol, audit» → «Yangi foydalanuvchi»: Login (lotin harf, raqam, . _ -), F.I.O., Parol, Rol, Filial (bo'sh = barcha filial) → «Foydalanuvchi yaratish».
2. Parol unutilsa: jadvalda xodim qatoriga yangi parol → «Parolni o'rnatish». Xodimning barcha ochiq sessiyalari (kompyuter va telefon) yopiladi.
3. Xodim o'z login-paroli bilan kiradi; kassir to'g'ridan-to'g'ri kassaga tushadi.
4. O'z parolini almashtirish: menyu pastida «Parolni almashtirish» → joriy, yangi, takror → «Almashtirish». Boshqa qurilmalardagi sessiyalar yopiladi.



Yangi foydalanuvchi jadvalda



Parol o'rnatildi, sessiyalar yopildi




O'z parolini almashtirish

> **Eslatma.** Parol kamida 8 belgi, login bilan bir xil bo'lmasin; login katta-kichik harfsiz takrorlanmaydi. Admin o'z parolini jadvalda emas, «Parolni almashtirish» sahifasida o'zgartiradi. Parol audit jurnaliga yozilmaydi — faqat kim va qachon o'rnatgani. Ochiq demoda (rasta.softdoc.uz/demo) foydalanuvchi va parol amallari yopiq.


Ish haqi: tabel, oylik varaq va to'lov

Xodim va shart, tabel, varaqni hisoblash, raschetka, tasdiqlash, to'lov, fond. Video: 2:33.


1. Modul: Sozlamalar → Modullar → «Ish haqi va tabel».
2. «Xodimlar» → «Yangi xodim»: F.I.Sh., lavozim, telefon, ishga kirgan sana, tizim foydalanuvchisi (yoki «tizimga kirmaydi»), boshlang'ich qoldiq → «Qo'shish».
3. Xodim kartasida shart: oklad / kunbay / soatbay, o'z yoki filial savdosidan %, ish kunlari (1 = dushanba) → «Yangi versiya». Avans, mukofot va jarima ham shu kartada.
4. «Tabel»: oy setkasi. «Kunni kiritish yoki tuzatish»: xodim, sana, holat (Ishladi/Kelmadi/Kasal/Ta'til/Dam olish), vaqt (8:30). «Kassa smenalaridan yig'ish», «Excel'ga yuklab olish».
5. «Oylik varaq»: oy → «Varaqni hisoblash». «Tekshiring» blokini ko'rib chiqing; qoralamani istalgancha «Qayta hisoblash» mumkin.
6. Har qatorda «Raschetka» — chop etiladigan hisob varaqasi.
7. «Tasdiqlash» (admin) → har xodimga summa, sana, Bank yoki kassa → «To'lash».
8. «Ish haqi fondi»: jami, filial, lavozim va xodim bo'yicha.



Tabel



Oylik varaq



Chop etish


Hisob varaqasi - 2026-09

Chilonzor-3
Malika Yusupova - Kassir
Ishlagan kun: 26 / 26, soat: 234.0
Qoralama - varaq hali tasdiqlanmagan

Qism	Tavsif	Summa, so'm
Oklad	Oklad	2 400 000
O'z savdosidan foiz	O'z savdosidan foiz	23 998
Mukofot	Mukofot: Oylik savdo rejasi bajarildi	200 000
Avans	Avans 2026-09-15	-500 000
Hisoblangan (mukofot, jarima, tuzatish bilan)		**2 623 998**
Ushlangan (avans, qarz)		500 000
O'tgan davrdan		0
Qo'lga beriladi		**2 123 000**
Keyingi oyga o'tadi		998
To'langan		0
To'lanmagan qoldiq		**2 123 000**

Mas'ul shaxs: _____ Xodim: _____

Raschetka




Ish haqi fondi

> **Eslatma.** Oklad = oylik / norma kunlar × ishlangan kun; «Qo'lga» 1000 so'mga pastga yaxlitlanadi, qoldiq keyingi oyga o'tadi. Avans va xodim qarzi varaqda ushlanadi («Qarzdan» bo'sh = to'liq). Tasdiqlangach oy tabeli qulflanadi; xato keyingi oy varag'iga tuzatish bilan kiritiladi. Qo'lda kiritilgan tabel kuni smenadan yig'ishda qayta yozilmaydi.


Xodim qarzlari va kassir reytingi

Xodim qarzini qisman/to'liq yopish; kassir reytingi va storno tahlili. Video: 1:28.

1. Menyu «Xodim qarzlari»: har xodim kartasida qoldiq, da'volar soni, to'langan.
2. Qatorda summa (qisman ham mumkin) → «To'landi». «Hammasini ko'rish» — yopilganlar bilan.
3. «Kassir reytingi va storno»: filial va sana → «Ko'rsatish» → «Reytingni hisoblash».
4. Jadval: chek soni, o'rtacha chek, storno soni va %, reyting. Pastda — 30 kunlik storno tahlili sabablari bilan.



Xodim qarzlari




Kassir reytingi va storno tahlili

> **Eslatma.** Qarz o'tkazma kamomadi (haydovchi/omborchi aybi) yoki «Pul qoldiqlari → Xodim qarzi» dan keladi. Ish haqi yuritilsa, ochiq qarz oylik varaqda ushlanadi. Qarzni yopish — faqat admin; ko'rish — hisobot huquqi. Reyting filial o'rtacha storno foiziga nisbatan: ancha yuqori — «Past — nazorat kerak», ancha past — «Yuqori».


Sozlamalar, Telegram va bot orqali buyurtmalar

Korxona, kassalar, filial va omborlar, chek, Telegram, yetkazish boti. Video: 3:08.


1. Sozlamalar (faqat admin): «Asosiy sozlamalar» va «Hammasi» rejimlari.
2. «Korxona ma'lumoti va logotip»: nom, yuridik nom, telefon, manzil, logotip (PNG/JPG/WEBP, 512 KB gacha).
3. «Kassalar» → «Kassa qo'shish»: Filial, Nomi, Kod (ixtiyoriy). Kassa o'chirilmaydi — to'xtatiladi.
4. «Filiallar»: yangi filial ombor, savdo zali, kassa va naqd hisoblari bilan birga ochiladi; yetishmasa — «To'ldirish».
5. «Omborlar» → «Ombor qo'shish»: Filial, Nomi (Kod bo'sh = avtomatik).
6. «Chek va printer» (Hammasi rejimida): chek yozuvlari, kassir ismi, QR, printer turi; jonli namuna; chek tili.
7. «Qurilma va integratsiya»: Telegram bot kaliti va chat raqami → «Sinov xabari yuborish»; yetkazish boti kaliti, narxi, buyurtma chati.
8. «Modullar»: Telegram orqali yetkazishni yoqing → menyuda «Yetkazish buyurtmalari».
9. Buyurtma kartasida: «Chekka aylantirish (kassa)» va «Keyingi holatga →» (Yangi → Qabul qilindi → Yetkazilyapti → Yetkazildi).



Kassalar



Chek sozlamasi va jonli namuna




Yetkazish buyurtmasi

> **Eslatma.** STIRni o'zingiz o'zgartirmang: litsenziyaga zid STIR saqlanmaydi, dastur sababini aytadi. Qo'shimcha ombor — «Omborlar» bo'limida; filial va ombor soni litsenziya bilan. Ruscha chek rus tili yoqilgan o'rnatishda ishlaydi. Yetkazish botini serverda SoftDoc ishga tushiradi; kalit o'zgarsa SoftDoc'ga xabar bering. Bot buyurtmasi qoldiqni band qilmaydi; qoldiq kassadagi chek tasdiqlanganda kamayadi.


Qo'shimcha ombor, zaxira nusxa va litsenziya

Filialga ombor qo'shish, zaxira nusxa olish/yuklab olish, litsenziya sahifasi (admin). Video: 2:00.


1. Sozlamalar → «Omborlar» → «Ombor qo'shish»: Filial, Nomi; Kod bo'sh qolsa avtomatik.
2. Yangi ombor kirim, inventarizatsiya, javonga chiqarish va o'tkazmalarda tanlanadi.
3. «Hammasi» rejimi → «Zaxira nusxa»: saqlash joyi, nechta nusxa turishi, kunlik avtomatik nusxa.
4. «Nusxa olish» → ro'yxatda «Yuklab olish» — faylni kompyuter/fleshkaga saqlang.
5. Menyu «Litsenziya»: kimga berilgan, STIR, muddat, limitlar (filial/kassa/ombor), o'rnatish raqami.
6. Yangi litsenziya: .lic fayl yoki matn → «Tekshirish» (bazaga yozmaydi) → «Saqlash».



Omborlar



Zaxira nusxalar ro'yxati



Litsenziya va limitlar

> **Eslatma.** Nusxadan tiklash — dasturchi ishi; tiklashdan oldin hozirgi holatdan ham nusxa oling. Belgilangan sondan ortiq nusxa avtomatik o'chadi. Egasi bilan aloqa hech narsani bloklamaydi; tovar, narx, mijoz ma'lumoti yuborilmaydi.

RASTA Mobile (telefon do'konlari)

RASTA Mobile: IMEI va nasiya

Telefon do'konlari uchun: IMEI bilan sotuv va nasiya. Video: 1:42.

1. RASTA Mobile — alohida mahsulot (telefon do'konlari uchun).

Ko'p so'raladigan savollar

Yangi xodimga login qanday ochiladi? Parolni unutdim.

Admin «Xodim, rol, audit» → «Yangi foydalanuvchi» bilan login ochadi; unutilgan parolni xodim qatorida «Parolni o'rnatish» bilan tiklaydi. Har xodim o'z parolini menyu pastidagi «Parolni almashtirish»da o'zgartiradi.

Yangi tovar guruhi (kategoriya) qanday qo'shiladi?

Tovar kartotekasi → «Tovar guruhlari» → «Yangi guruh». Keyin «Narx, aksiya, marja» → «Marja pastki chegarasi»da shu guruhga foiz qo'ying — aks holda guruhdagi tovarga narx o'rnatilmaydi.

Tovar nomi yoki guruhini qanday o'zgartiraman?

Tovar kartotekasida tovar nomini bosing → tovar kartasi: nom, guruh, QQS, muddatni tahrirlab «Saqlash». Narx — shu kartaning «Sotuv narxi» bloki yoki «Narx, aksiya, marja» sahifasi.

Kassa «Qoldiq yetarli emas» deyapti, lekin omborda tovar bor.

Kassa faqat savdo zalidagi qoldiqdan sotadi. Tovarni «Javonga chiqarish» bilan ombordan savdo zaliga o'tkazing yoki boshlang'ich qoldiqni savdo zaliga kiriting.

Boshlang'ich qoldiqni xato tasdiqladim.

Admin hujjatdagi «Tasdiqni bekor qilish» bilan qoralamaga qaytaradi — faqat bu tovardan hali savdo yoki ko'chirish bo'lmagan bo'lsa. Aks holda farqni inventarizatsiya bilan tuzating.

Excel import «kodli tovar allaqachon mavjud» deyapti.

Import faqat yangi tovar qo'shadi. Shu fayl ikkinchi marta yuklangan bo'lsa, faqat yangi yoki tuzatilgan qatorlarni qoldiring.

Chekni bekor qila olmayapman.

Storno chek tasdiqlangandan keyin 24 soat ichida va qaytarish qilinmagan chekda ishlaydi; mas'ul shaxs o'z login-parolini kiritadi. Muddat o'tgan bo'lsa — qaytarish qiling.

Qaytarish hisobotlarda ko'rinmayapti.

Qaytarish qaytarish kunidagi savdo va foyda hisobotlaridan ayriladi (alohida «Qaytarish» ustuni). Qaytarilgan summa Z-hisobotda («Qaytarish summasi») va cheklar tarixida («Qaytarilgan») ham ko'rinadi.

O'tgan kungi Z-hisobotni qayerdan topaman?

Smena sahifasi tepasidagi «Z-hisobotlar tarixi» (menejer va admin uchun Hisobotlar bo'limida ham). Sana va kassa bo'yicha toping, «Ko'rish» yoki «Chop etish». Kassir faqat o'z smenalarini ko'radi.

Hisobotni Excel'ga chiqarsa bo'ladimi?

Ha: kunlik savdo, tovar savdosi, to'lov usullari, oylik foyda va qoldiq qiymatida «Excel» tugmasi bor. ABC/XYZ, aksiya va kassir reytingida hozircha yo'q.

Ikkinchi ombor qo'shmoqchiman.

Admin: Sozlamalar → «Omborlar» → «Ombor qo'shish» (litsenziyadagi ombor soni doirasida). Omborlar orasida ko'chirish — «Filiallararo o'tkazma».

STIRni kiritdim — bo'limlar yopilib qoldi.

Endi litsenziyaga zid STIR saqlanmaydi — dastur sababini aytadi. Eski xato bilan yopilgan bo'lsa, to'g'ri STIRni qayta yozing yoki SoftDoc'ga murojaat qiling.

Interfeys yoki chek ruscha bo'lishi mumkinmi?

Rus tili SoftDoc tomonidan yoqiladi; shundan keyin menyuda O'zbekcha/Русский tugmasi va sozlamada ruscha chek ishlaydi.

Telegram'ga xabar kelmayapti.

Sozlamalar → Qurilma va integratsiya: bot kaliti va chat raqamini saqlang, «Sinov xabari yuborish» bilan tekshiring. Yetkazish boti kalitini o'zgartirsangiz SoftDoc'ga xabar bering — botni qayta ishga tushirish kerak.

Mijoz kutib turibdi, keyingi mijozni qanday xizmat qilaman?

Kassa pastidagi «Ochiq cheklar» → «+ Yangi chek». Birinchi chek o'z slotida saqlanadi; mijoz qaytganda slotni bosing.

Ish haqi menyusi ko'rinmayapti.

Sozlamalar → Modullar → «Ish haqi va tabel» ni yoqing (admin).

Yangi guruhdagi tovarga narx qo'yib bo'lmayapti.

Guruhga marja pastki chegarasi qo'yilmagan. «Narx, aksiya, marja» → «Marja pastki chegarasi» → «+ Yangi chegara o'rnatish».

1C dagi tovarlarni RASTA'ga qanday o'tkazaman?

1C da «Obmen s saytom» (CommerceML) bilan import.xml va offers.xml (yoki zip) chiqaring, so'ng Tovar kartotekasi → «1C almashinuvi» → faylni tanlab «Tekshirish» → «Tasdiqlash va yozish». Qayta yuklasangiz, tovarlar 1C Id, shtrix-kod yoki artikul bo'yicha topiladi — dublikat bo'lmaydi.

Buxgalterga 1C uchun savdoni qanday beraman?

Hisobotlar → «1C ga savdo eksporti»: davr va filialni tanlab «Excel (xlsx)» — kunlik tovar yig'masi va to'lov turlari, 1C da «Zagruzka dannyx iz tablichnogo dokumenta» bilan yuklanadi. Har chek alohida hujjat kerak bo'lsa — «orders.xml».

Yetkazuvchini qanday qo'shaman?

Hozircha yetkazuvchini SoftDoc qo'shadi — nomi va telefonini yuboring.

Savol qolsa: softdoc.uz → Aloqa. Bepul demo: rasta.softdoc.uz/demo